

JURNALISTIK SURUSHTIRUV JARAYONLARINI MONITORING QILISHNINIG IMITATSION MODELINI VA ALGORITMI

Omonullaeva F.O

Alfraganus universiteti

Raqamli texnologiyalar kafedrası

Annotatsiya: *Jahonda jurnalistikaga oid katta hajmdagi axborotlarga ishlov berish, ularni ishonchliligini ta’minlash bo‘yicha yuzaga kelayotgan muammolarni hal qilish, jumladan, bu yo‘nalishda tobora ortib borayotgan katta hajmdagi turli axborotlarning oqimini maqbul boshqarish, monitoring jarayonlari uchun intellektual tahlil qilish muhim vazifalardan bo‘lib hisoblanadi. Shu bilan birga jurnalistik surishtiruv ma’lumotlarini yaxlitligini taminlash va sohaga tegishli axborotlar o‘rtasida mutanosiblikni ta’minlash masalalarini hal etish borasida ilmiy - amaliy tadqiqotlarga alohida e’tibor qaratish zarur hisoblanadi. Ushbu maqolada zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalarini ijtimoiy sohalariga keng joriy etish maqsadida jurnalistik surishtiruv jarayonlarini monitoring qilish modellari va jurnalist reytingi optimal baxolash algoritm va dasturiy ta’minotlarini uchun avtomatlashtirilgan jarayonlarni monitoring qilish va reytingni aniqlash tamoyillarini, jurnalistik surishtiruv jarayonlarini monitoring qilishning ehtimoliy modellari, jurnalistik surishtiruv jarayonlarini monitoring qilish algoritmlari, integrallashgan jurnalistik ma’lumotlarga xizmat ko‘rsatish davrini aniqlash algoritmlari taklif etilgan. Tadqiqot jarayonida matematik modellashtirish, dasturlash texnologiyalari, graflar nazariyasi, tizimli tahlil va ma’lumotlarning intellektual tahlili, ma’lumotlar va bilimlar bazasini shakllantirish usullaridan foydalanilgan.*

Kalit so‘zlar: *monitoring, model, algoritm, jarayon, jurnalist, OAV, reyting, dasturlash texnologiyalari, graflar nazariyasi, tizimli tahlil*

Jahonda jurnalistik surishtiruv jarayonlari monitoring qilish va jurnalistlar tomonidan taqdim etilayotgan axborotlarni ishonchliligi, sifati va xizmatlarni intellektual tahlil qilish orqali iqtisodiy-ijtimoiy samaradorlikka erishishda axborot kommunikatsion texnologiyalaridan, xususan, jurnalistik surishtiruv jarayonlari monitoring qilish va jurnalist reytingini avtomatik aniqlashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Jurnalistika faoliyatida ma’lumotlardan samarali foydalanish, yangilik yaratishda zamonaviy AKTlardan unumli foydalanish, ma’lumotlarni yetkazib berishda soddalik, ochiqlik, tushunarlilik tamoyillariga tayanish hamda turli sohalaridagi jurnalistlar faoliyati bo‘yicha tarjiba almashish dolzarb masalalardan biridir. Jumladan, respublikamizda 2018-yilda aholini har 1000 tasiga 358 ta jurnal nusxasi to‘g‘ri kelgan bo‘lsa ku ko‘rsatkich

2020- yilga kelib 848 taga yetgan, ya’ni qariyb 3 barobarga oshgan . Shu bilan bir qatorda o‘zbek matbuotida jurnalistik surishtiruv faqatgina mustaqillik yillarining dastlabki

10-15 yilida rivojlandi. Bosma va elektron OAVlarida biri-biridan qiziqarli surishtiruvlar e’lon qilgan. Bu davrda to‘g‘ri va xolis jurnalistik surishtiruvlarni targ‘ib qilayotgan tahririyatlar juda keng doirada o‘quvchi va tomoshabinni yig‘a olgan. O‘sha paytda


20-25 million aholisi bo‘lgan mamlakatimizda “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasi adadi 700-800 ming nusxaga yetgan. Odamlar soat 20:30 da boshlanadigan “Axborot” dasturini barcha

yumushlarini to‘xtatib ko‘radigan bo‘ldilar. Bugungi kunga kelib jurnalistik surishtiruv va faoliyatiga keng imkoniyatlar berildi. Bir nechta sifatli OAV va tahririyatlar tashkil etildi. Shunday ekan Axborot manbalarinig oshib borishi evaziga uni tartibga solish, aholiga tushunishga oson va to‘g‘ri yetkazish uchun jurnalistik surishtiruv jarayonlarini monitoring qilish va jurnalistlarni faoliyat sohasidan kelib chiqib reytingini aniqlash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Respublikamizda jurnalistik surushtiruv jarayonlarini monitoring qilish va jurnalist reytingi optimal baholash masalasini amaliyotga tatbiq etishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. 2022 - 2026 - yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturining 4 - bobida “Ommaviy axborot vositalarining roli va jurnalistlarning kasbiy faoliyati himoyasini yanada kuchaytirish” ustuvor yo‘nalishlardan biri etib belgilangan. Mazkur ustuvor yo‘nalishni amalga oshirish, jumladan, jurnalistik surushtiruv jarayonlarini monitoring qilish uslubiyatini ishlab chiqish, jurnalist reytingini amalga oshirishdagi qaror qabul qilishga ko‘maklashuvchi ma‘lumotlarni ilmiy-amaliy tahlil etish usullarini ishlab chiqish eng muhim masalalardan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 iyundagi PQ-4366-son “Ommaviy axborot vositalari mustaqilligini ta‘minlash hamda davlat organlari va tashkilotlari axborot xizmatlari faoliyatini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori, 2017 yil 11 avgustdagi PF-5148-son “Matbuot va axborot sohasida boshqaruvni yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi farmoni hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

Axborot jamiyati tushunchasining umumiy qabul qilingan ta‘rifi yo‘q. Biroq, uning asosiy xususiyatlariga ko‘ra, olimlarning qarashlari birlashadi. Birinchidan, axborot ijtimoiy taraqqiyotning asosiy va eng qimmatli resursiga aylanmoqda, ayni paytda ilgari hukmron bo‘lgan resurslar (tabiiy, insoniy, texnik, energiya) avvalgi hal qiluvchi ahamiyatini yo‘qotmoqda. Ikkinchidan, axborot faoliyati ijtimoiy amaliyotning yetakchi turiga aylanib bormoqda, aholining keng qatlamlari jahon axborot resurslaridan foydalanayapti va ulardan o‘z manfaatlarini yo‘lida faol foydalanmoqda. Uchinchidan, axborot jarayonlarining texnik va texnologik bazasi jadal rivojlanmoqda. Endi uning dunyodagi ta‘sirining asosiy kafolati tabiiy boylik yoki mamlakatning kattaligi emas, balki ma‘lumotlarga ega bo‘lish va uni qo‘lga kiritish vositalaridir. Shunga ko‘ra, davlatlarning kuchi (shu jumladan, harbiy sohada ham) ularning axborot “arsenallari” ning hajmi va xilma-xilligi bilan o‘lchanadi. Quvvatning asosiy ko‘rsatkichlaridan biri mamlakatning yangi kommunikatsiya texnologiyalari bilan to‘yinganligidir. Jahon amaliyotida uni har 1000 aholiga to‘g‘ri keladigan kompyuterlar, mobil va an‘anaviy telefonlar, televizorlar va boshqa shunga o‘xshash texnik vositalar soni bo‘yicha baholash odatiy holdir.

Modellashtirish maqsadi jurnalistik surushtiruv jarayonlarining tashqi va ichki ta‘sirlarga munosabati, tizim ishlash chegaralari, jurnalistik surushtiruv jarayonlari va jurnalist reytingini aniqlash shakllari, usullari, algoritmlari va mexanizmlari samaradorligini aniqlash hisoblanadi.



1-rasm Modellar tasnifi

Modellar turli xil xususiyatlarga ko‘ra tasniflanishi mumkin (1-rasm). Modellashtirish amaliyotida turli modellarning turli xil o‘zaro almashinuvi yoki umumlashuvi mavjud. Shu sababli 1 rasmda keltirilgan tasnif shartli ravishda ko‘rsatilgan.

jurnalistik surushtiruv jarayonlari va jurnalist reytingini aniqlashni modellashtirish va tadqiqot olib borish asosiy tamoyillari asosida quyidagilarni alohida ta’kidlash joiz:

- maqsadga yo‘naltirilganligi. Bunda tadqiqot maqsadi o‘rganilayotgan jurnalistik surushtiruv jarayonlari va jurnalist reytingini aniqlash tizimini ta’riflash usuli va shaklini aniqlaydi;
- jurnalistik surushtiruv jarayonlari va jurnalist reytingini aniqlash tizimini yaxlit-evolyusion ta’riflashda ko‘p bosqichlilik;
- tuzilmaviyligi. Bunda jurnalistik surushtiruv jarayonlari va jurnalist reytingini aniqlash tizimining tuzilmasini tadqiqot maqsadi uchun yetarli darajaga ajratib chiqish;
- jurnalistik surushtiruv jarayonlari va jurnalist reytingini aniqlash tizimini ierarxik tasvirlashda axborot yaxlitligi;
- jurnalistik surushtiruv jarayonlari va jurnalist reytingini aniqlash tizimining dinamikligi.

Jurnalistik surushtiruv jarayonlari va jurnalist reytingini aniqlashni tizimli modellashtirish tamoyillari va jurnalistik surushtiruv jarayonlari va jurnalist reytingini aniqlash tizimini formallashtirish va tadqiq qilish tizimli tamoyillari asosida shakllanadi. Jurnalistik surushtiruv jarayonlari va jurnalist reytingini aniqlashni modellashtirish asosiy tamoyillari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

- ma’lumotlarning yetarlilik tamoyili;
- ma’lumotlarning invariantlilik (o‘zgarmaslik) tamoyillari;
- modellarning uzluksizlik tamoyili;
- modellarni amalga oshirilganlik tamoyili.


Ma’lumotlarning yetarlilik tamoyili har bir xususiy modelda modellashtirish natijalari uchun zarur bo‘lgan aniqlik bilan ma’lum bo‘lgan ma’lumotdan foydalanish lozimligini anglatadi. Ma’lum

bo‘lgan ma’lumot deb modellashtirish davrida mavjud va baholash mumkin bo‘lgan normativ so‘rovnomalar va boshqa turdagi ma’lumotlar tushuniladi.

jurnalistik surushtiruv jarayonlari va jurnalist reytingini aniqlash tizimi modelida qo‘llaniladigan ma’lumotlarning invariantligi tamoyiliga ko‘ra kiruvchi ma’lumot tadqiqotning ushbu bosqichida ma’lum bo‘lmaganligi sababli modellashtirilayotgan tizim parametrlaridan mustaqil bo‘lishi kerak. Bu tamoyilni qo‘llash orqali matematik modellarni qurishda kamyob uchraydigan yopiq doira, ya’ni modelda qo‘llanilayotgan ma’lumot faqatgina modellashtirish natijasida aniqlanishi mumkin bo‘lgan hodisaga duch kelmaslikni ta’minlaydi.

Modellarning uzluksizlik tamoyilining mohiyati shundan iboratki, har bir model jurnalistik surushtiruv jarayonlari va jurnalist reytingini aniqlash tizimining avvalgi modellarida belgilangan yoki aks ettiriladigan jurnalistik surushtiruv jarayonlari va jurnalist reytingini aniqlash jarayonlarining xususiyatlarini buzmasligi kerak. Shu bois, mezon va modelni tanlashda birinchi navbatda qo‘llanilayotgan axborotning yetarlilik va invariantlik tamoyillarining bajarilishini ta’minlovchi uzluksizlik tamoyiliga asoslanishi lozim. Agar navbatdagi model avvalgi modelning davomi bo‘lmasa, u holda avvalroq qurilgan jurnalistik surushtiruv jarayonlari va jurnalist reytingini aniqlash jarayonlari modellari uzluksizlik tamoyilini ta’minlash uchun moslashtirilishi kerak.

Jurnalistik surushtiruv jarayonlari va jurnalist reytingini aniqlash tadqiqotlarida modellarni nazariy qo‘llash nuqtai nazaridan amalga oshirish tamoyili juda ahamiyatli hisoblanadi. Uni amalga oshirish uchun har bir jurnalistik surushtiruv jarayonlari va jurnalist reytingini aniqlash ma’lumotlarni yaxlitligini ta’minlash jarayonlari xususiy modeli zamonaviy hisoblash texnikasi va aloqa vositalari qo‘llanilishi lozim.



2-rasm. Jurnalistik surushtiruv jarayonlari va jurnalist reytingini aniqlash imitatsion modelini yaratish algoritmi

Jurnalistik surushtiruv jarayonlarini monitoring qilish va jurnalist reytingini baxolash modellari va algoritmlariga bag‘ishlangan bo‘lib, Jurnalistik surushtiruv jarayonlarini monitoring qilishning ehtimoliy modelini yaratish, Jurnalistik surushtiruv jarayonlarini monitoring qilishning modelini yaratish tamoyillari va algoritmini ishlab chiqish va Integrallashgan jurnalistik ma’lumotlarga ishlov berishning funksional modelini ishlab chiqish masalalariga to‘xtalib o‘tilgan. Bundan tashqari jurnalistik surushtiruv jarayonlarini monitoring qilish va jurnalist reytingini aniqlash tizimining imitatsion modelini yaratish va uni optimal boshqarish hamda ma’lumotlarga ishlov berish jarayonlari keltirib o‘tilgan.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Kerbrat-Orecchioni, C.: “Analyse des conversations et négociations conversationnelles “ in M. Grosjean et. L. Mondada (éds.) La négociation au travail, Lyon, PUL/ARCI, 17-41 (2004).
2. Lin, J.: „Automatic Author Profiling of Online Chat Logs”, M.S. Thesis, Naval Postgraduate School, Monterey (2007).
3. Lortal, G., Todirascu-Courtier, A., Lewkowicz, M: “AnT&CoW:Share, Classify and Elaborate Documents by means of Annotation” in Journal of Digital Information Management, (eds. Richard Chbeir, Ajith Abraham, Pit Pichappan), no 6(1), 61-70 (2008).
4. Pennebaker, J. W., Francis, Martha E., Booth, R. J.: “Linguistic Inquiry and Word Count – LIWC2001”, Mahwah, NJ, Erlbaum Publishers (2001).

5. Portele, Th.: “Data-driven Classification of Linguistic Styles” in Spoken Dialogues. COLING (The 19th International Conference on Computational Linguistics) (2002).
6. Abdusaid Ko‘chimov, Jurnalist surishtiruv tajriba va tahlil amaliy qo‘lanma «Farg‘ona» nashriyoti, 2018 yil.
7. S.S. Qosimov Axborot texnologiyalari xaqida o‘quv qo‘llanma Toshkent 07
G‘aniyev S.K.Karimov M.M. Hisoblash tizimlari va tarmoqlarida axborot xavfsizligi TDTU
8. <http://www.kaspersky.ru/>